



INSON KAPITALI RIVOJI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH

Dosnazarova Aysuliw

Toskent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-1183-5094

dosnazarova4@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada inson kapitalini rivojlantirishning kambag'allikni kamaytirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda inson omilining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot davomida inson kapitaliga yo'naltirilgan siyosatning samaradorligi asoslab berilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, kambag'allik, iqtisodiy rivojlanish, ta'lim sifati, bandlik, ijtimoiy himoya, daromad, kasbiy ko'nikmalar, inson resurslari, farovonlik.

РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА КАК ФАКТОР СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ

Досназарова Айсулыу

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье на научной основе раскрыта роль развития человеческого капитала в сокращении бедности. Проанализированы возможности повышения доходов населения за счёт улучшения качества образования, системы здравоохранения и развития профессиональных навыков. Также обоснована значимость человеческого фактора в обеспечении социально-экономической стабильности. В ходе исследования доказана эффективность политики, направленной на развитие человеческого капитала, и разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: человеческий капитал, бедность, экономическое развитие, качество образования, занятость, социальная защита, доход, профессиональные навыки, человеческие ресурсы, благосостояние.

HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AS A FACTOR IN REDUCING POVERTY

Dosnazarova Aysuliw

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article scientifically examines the role of human capital development in reducing poverty. It analyzes the opportunities for increasing household incomes through improving the quality of education, strengthening healthcare systems, and enhancing professional skills. The significance of the human factor in ensuring socio-economic stability is also substantiated. The study demonstrates the effectiveness of policies aimed at developing human capital and offers practical recommendations.

Keywords: human capital, poverty, economic development, education quality, employment, social protection, income, professional skills, human resources, welfare.

Kirish.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar, globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi har bir davlat oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu sharoitda iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda inson omili, ayniqsa, inson kapitali asosiy rol o'ynaydi.

Inson kapitali tushunchasi iqtisodiy nazariyada nisbatan keng qo'llaniladigan kategoriyalardan biri bo'lib, u insonning bilimlari, ko'nikmalari, tajribasi, sog'ligi va intellektual salohiyati yig'indisini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, inson kapitali — bu insonning o'ziga xos "resursi" bo'lib, u orqali daromad topish va jamiyat rivojiga hissa qo'shish imkoniyati shakllanadi. Ushbu resurs vaqt o'tishi bilan rivojlanib boradi va unga qilinadigan investitsiyalar kelajakda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Oddiy qilib tushuntirilganda, inson kapitali bu insonning bilim olish darajasi, kasb-hunar ko'nikmalari, sog'lom turmush tarzi va mehnatga bo'lgan munosabati orqali shakllanadigan imkoniyatlar majmuasidir. Masalan, yaxshi ta'lim olgan, zamonaviy kasbni egallagan va sog'lom inson mehnat bozorida ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi hamda yuqori daromad topadi. Aksincha, ta'lim va ko'nikmalari yetarli bo'lmagan shaxslar uchun yuqori daromadli ish topish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Shu sababli inson kapitalini rivojlantirish — bu faqat shaxsiy emas, balki butun jamiyat uchun muhim masaladir. Kamambag'allik esa jamiyatda keng tarqalgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bo'lib, u asosan daromadning yetishmasligi, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalana olmaslik, ish o'rinlarining yetarli emasligi kabi omillar bilan bog'liqdir. Kamambag'allik insonlarning imkoniyatlarini cheklaydi va ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois, kamambag'allikni qisqartirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Inson kapitali va kamambag'allik o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Inson kapitali darajasi oshgan sari, insonning daromad olish imkoniyati ham kengayadi, bu esa o'z navbatida kamambag'allik darajasining pasayishiga olib keladi. Masalan, ta'lim darajasi yuqori bo'lgan shaxslar odatda barqaror ish topishadi va yuqori ish haqi oladilar. Bu esa ularning hayot darajasini yaxshilaydi va ularni kamambag'allikdan chiqishiga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatda inson kapitalini mustahkamlash va kamambag'allikni qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Ta'lim inson kapitalining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Sifatli ta'lim insonning bilim darajasini oshiradi, uning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashishga yordam beradi. Ta'lim orqali inson o'z imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lish imkoniga ega bo'ladi. Shu sababli ta'limga qilingan har qanday investitsiya kelajakda ijobiy natija beradi. Sog'liq ham inson kapitalining ajralmas qismi hisoblanadi. Sog'lom inson mehnat faoliyatida samarali ishtirok etadi va uzoq muddat davomida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar inson sog'ligiga yetarli e'tibor qaratilmasa, uning mehnat unumdorligi pasayadi, bu esa daromad darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish inson kapitalini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Mehnat bozori ham inson kapitali bilan chambarchas bog'liq. Mehnat bozorida yuqori malakali kadrlarga talab oshib borayotganligi sababli, insonlar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishga majbur bo'ladilar. Bu esa inson kapitalining sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keladi. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va tadbirkorlikning rivojlanishi kamambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari yangi kasb va ko'nikmalarni talab qilmoqda. Bu esa insonlardan doimiy o'rganishni, o'z ustida ishlashni va yangi bilimlarni egallashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli savodxonlik ham inson kapitalining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson kapitalini rivojlantirish orqali kamambag'allikni kamaytirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon kompleks yondashuvni talab etadi va unda davlat, jamiyat hamda har bir insonning o'rni muhimdir. Inson kapitaliga qilingan investitsiyalar nafaqat shaxsning o'ziga, balki butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada inson kapitalining mohiyati, uning kamambag'allikni qisqartirishdagi o'rni hamda O'zbekiston sharoitida ushbu jarayonlarning amalga oshirilishi ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Inson kapitali va kambag'allikni qisqartirish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu doirasida shakllangan nazariy qarashlar vaqt o'tishi bilan takomillashib, oddiy iqtisodiy o'sish konsepsiyasidan kengroq inson salohiyati va imkoniyatlarini rivojlantirishga asoslangan yondashuvga o'tgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson kapitali nazariyasi nafaqat klassik iqtisodiy yondashuvlar, balki zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyalar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Inson kapitali nazariyasining klassik asoslari sifatida Schultz va Becker ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, inson kapitali — bu shaxsning bilim, ko'nikma va sog'lig'iga qilingan investitsiyalar natijasida shakllanadigan iqtisodiy resursdir. Ushbu olimlarning 1960–1970-yillarda chop etilgan ishlari (masalan, Becker, Human Capital, 1964) inson kapitalini iqtisodiy tahlilning markaziy kategoriyalaridan biriga aylantirdi. Keyingi bosqichda inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik makro darajada o'rganildi. Barro va uning hamkorlari olib borgan tadqiqotlar (Barro, 1991; Barro & Lee, 2013) inson kapitalining yuqori darajasi iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirishini empirik jihatdan tasdiqlagan. Ularning ishlari ko'plab mamlakatlar ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan bo'lib, ta'lim darajasi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanini ko'rsatadi. Kambag'allik va inson kapitali o'rtasidagi bog'liqlik masalasida Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv muhim o'rin tutadi. Sen (1999) o'zining Development as Freedom asarida kambag'allikni faqat daromad yetishmasligi sifatida emas, balki inson imkoniyatlarining cheklanganligi sifatida talqin qiladi. Ushbu konsepsiya kambag'allikni kamaytirishda ta'lim, sog'liq va ijtimoiy imkoniyatlarning o'rni beqiyos ekanligini asoslab beradi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda inson kapitali raqamli iqtisodiyot bilan ham bog'lab o'rganilmoqda. Masalan, OECD (2019, 2021) hisobotlarida raqamli ko'nikmalar inson kapitalining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu manbalarda raqamli savodxonlik, axborot texnologiyalaridan foydalanish va innovatsion fikrlash kambag'allikni qisqartirishda muhim omil ekani ta'kidlanadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham inson kapitali va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik keng yoritilgan. Jahon banki (World Bank, 2020, 2022) hisobotlarida inson kapitali indeksi (Human Capital Index) ishlab chiqilib, mamlakatlarning kelajakdagi iqtisodiy salohiyati baholanadi. Ushbu indeks ta'lim va sog'liq ko'rsatkichlariga asoslanib, davlatlarning rivojlanish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, inson kapitali darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi sezilarli darajada past bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar so'nggi yillarda faollashdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 'Yangi O'zbekiston strategiyasi'da inson

kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada ta'lim tizimini isloh qilish, sog'liqni saqlashni rivojlantirish va aholi bandligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish vazifalari ilgari surilgan. So'nggi yillarda O'zbekistonda chop etilgan ilmiy adabiyotlarda ham inson kapitali masalasi chuqur tahlil qilinmoqda. Jumladan, inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish, Ta'lim va inson kapitali rivoji hamda Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali kabi ilmiy ishlarda inson kapitalining shakllanishi va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda ta'lim sifatini oshirish, kasb-hunar tizimini rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyotga moslashish zarurligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, so'nggi 5 yil ichida o'zbek iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy siyosatning roli ham keng o'rganilgan. Bu borada mahalliy ilmiy ishlarda kambag'allikni kamaytirishda manzilli ijtimoiy yordam, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va bandlik siyosati muhim vosita sifatida ko'rsatib o'tilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Xalqaro va milliy ilmiy manbalar inson kapitalining ta'lim, sog'liq, mehnat bozori va raqamli ko'nikmalar bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda inson kapitalining mintaqaviy xususiyatlari, innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi o'zgarishlari va uning kambag'allikni kamaytirishdagi aniq mexanizmlarini yanada chuqurroq o'rganish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar inson kapitali iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri ekanligini tasdiqlaydi. Shu sababli, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati kambag'allikni qisqartirishda eng samarali yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda inson kapitalini rivojlantirish orqali kambag'allikni kamaytirish jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy nazariya, zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda amaliy statistik ma'lumotlar tashkil etadi. Tanlangan metodologiya tadqiqot mavzusini chuqur va kompleks o'rganish, shuningdek, olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv keng qo'llanildi. Ushbu yondashuv inson kapitali va kambag'allik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Ya'ni, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori va ijtimoiy siyosat kabi omillar alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Bu esa jarayonni chuqurroq tushunish va sabab-oqibat aloqalarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli muhim o'rin tutadi. Ushbu usul yordamida turli mamlakatlar tajribasi, shuningdek, O'zbekiston va xorijiy davlatlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar o'rganildi. Xususan, inson kapitali darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi pastligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriligi aniqlanib, ular o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asosda tahlil qilindi.

Tadqiqotda statistik tahlil usuli ham keng qo'llanildi. Statistik ma'lumotlar asosida inson kapitali indikatorlari va kambag'allik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Bunda ta'lim darajasi, bandlik darajasi, daromadlar miqdori hamda sog'liq ko'rsatkichlari asosiy indikatorlar sifatida tanlab olindi. Ushbu ma'lumotlar asosida korrelyatsion va regressiya tahlillari amalga oshirilib, inson kapitalining kambag'allikka ta'siri miqdoriy jihatdan baholandi.

Analitik tahlil usuli orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda davlat dasturlari o'rganildi. Bu jarayonda inson kapitali nazariyasiga oid klassik va zamonaviy qarashlar tahlil qilindi hamda ularning amaliy ahamiyati baholandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning inson kapitaliga ta'siri ham ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqildi. Tadqiqotda induksiya va deduksiya metodlari ham qo'llanildi. Induksiya usuli orqali alohida kuzatuvlar va faktlar asosida umumiy xulosalar chiqarildi, deduksiya usuli orqali esa umumiy nazariy qoidalardan kelib chiqib xususiy holatlar tahlil qilindi. Bu metodlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini oshirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, tizimli-qiyosiy va empirik yondashuvlar ham qo'llanildi. Empirik tahlil orqali real statistik ma'lumotlar asosida inson kapitalining kambag'allikka ta'siri o'rganildi. Bu esa tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirdi va xulosalarning real iqtisodiy jarayonlarga mosligini ta'minladi. Shuningdek, tadqiqot davomida sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Sifatli yondashuv orqali inson kapitali va kambag'allik o'rtasidagi nazariy bog'liqliklar o'rganilgan bo'lsa, miqdoriy yondashuv orqali bu bog'liqlik statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Ushbu ikki yondashuvning uyg'unligi tadqiqotning ilmiy darajasini oshirdi. Tadqiqotning metodologik asosini shakllantirishda tizimlilik, ob'ektivlik, izchillik va ilmiylik tamoyillariga qat'iy amal qilindi. Har bir tahlil bosqichi mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshirilib, olingan natijalar umumlashtirildi va xulosalar ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar inson kapitali va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur va har tomonlama o'rganish imkonini berdi. Ushbu metodologiya olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlab, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega xulosalar chiqarishga xizmat qildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot davomida inson kapitali ko'rsatkichlari va kambag'allik darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, inson kapitali darajasi yuqori bo'lgan hududlarda kambag'allik darajasi nisbatan past bo'lib, aksincha, inson kapitali yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda kambag'allik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi kuzatiladi. Bu holat inson kapitalining iqtisodiy farovonlikni ta'minlashdagi muhim rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Tahlil jarayonida ta'lim darajasi asosiy indikatorlardan biri sifatida ko'rib chiqildi. Kuzatuvlar natijasiga ko'ra, oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan aholining daromad darajasi yuqori bo'lib, ularning kambag'allik xavfi sezilarli darajada past ekanligi aniqlandi. Bu esa ta'lim inson kapitalining asosiy tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shuningdek, sifatli ta'lim tizimi mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi va yuqori malakali ish o'rinlarini egallash imkoniyatini kengaytiradi. Sog'liq holati ham inson kapitalining muhim komponenti sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sog'lom aholi mehnat faoliyatida yuqori samaradorlikka ega bo'lib, uzoq muddat davomida barqaror daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aksincha, sog'liq muammolari mavjud bo'lgan shaxslarning mehnat bozori imkoniyatlari cheklangan bo'lib, bu ularning kambag'allik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mehnat bozori ko'rsatkichlari ham tahlil qilinib, bandlik darajasi va daromadlar o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Bandlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda kambag'allik darajasi past bo'lishi kuzatiladi. Bu esa yangi ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish inson kapitalini samarali foydalanishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Regressiya tahlili natijalari inson kapitali ko'rsatkichlarining kambag'allik darajasiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ya'ni, inson kapitali darajasi oshgani sari kambag'allik darajasi pasayib boradi. Ushbu bog'liqlik statistik jihatdan ishonchli bo'lib, iqtisodiy nazariyada ilgari surilgan gipotezalarni tasdiqlaydi. Bu natija inson kapitaliga investitsiya kiritish kambag'allikni kamaytirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, inson kapitali nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim va sog'liq darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy faollik, innovatsion faoliyat va fuqarolik mas'uliyati yuqori bo'ladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining ahamiyati yanada ortib borayotgani aniqlandi. Zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, raqamli ko'nikmalarga ega bo'lish va innovatsion fikrlash kambag'allikdan chiqishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, raqamli savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar

yangi ish o'rinlariga tez moslashadi va daromad olish imkoniyatlari kengayadi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar ham inson kapitali va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari yaxshilanib, bandlik darajasi oshdi. Bu esa kambag'allik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari ham kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynamoqda.



1-rasm. 2025-yilda mehnat bozorida amalga oshirilgan chora-tadbirlar

2025-yilda O'zbekiston mehnat bozori va ijtimoiy siyosat yo'nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida aholining bandligini oshirish hamda daromad manbalarini kengaytirishga erishildi. Ushbu jarayonlar inson kapitalini rivojlantirish orqali kambag'allik darajasini kamaytirishning amaliy samaradorligini yaqqol ko'rsatib berdi.

Olingan natijalarga ko'ra, hisobot davrida taxminan 5,4 million nafar fuqaro turli shakldagi daromad keltiruvchi faoliyatga jalb etilgan. Bu ko'rsatkich mamlakatda mehnat resurslaridan foydalanish darajasi sezilarli darajada yaxshilanganini anglatadi. Mazkur aholining bir qismi barqaror ish o'rinlariga joylashtirilgan bo'lsa, qolgan qismi o'z faoliyatini tadbirkorlik yo'nalishida yo'lga qo'ygan. Bu holat mehnat bozorida nafaqat bandlik, balki o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarining ham kengayganini ko'rsatadi. Iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali bandlikni oshirish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda 134 trillion so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilishi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, bu yangi ish o'rinlari yaratilishiga va aholi daromadlarining o'sishiga xizmat qilmoqda. Natijada iqtisodiyotning real sektori faollashib, hududiy rivojlanish darajasi oshmoqda.

Shuningdek, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Dastur doirasida 761 mingdan ortiq oilaning ehtiyojlari va imkoniyatlari tahlil qilinib, ular uchun individual rivojlanish rejalari ishlab chiqildi. Bunday yondashuv har bir oilaning real holatidan kelib chiqqan holda aniq chora-tadbirlarni belgilash imkonini berdi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqilgan individual rejalarda asosida 523 mingdan ortiq kam ta'minlangan oilalar turli daromad oshirish xizmatlari bilan qamrab olindi. Bu jarayon ularning iqtisodiy faolligini oshirish, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda barqaror daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarning kengaytirilishi ham muhim natijalarni berdi. Xususan, kambag'al oilalarning tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish maqsadida 2,2 trillion so'm kredit mablag'lari ajratildi, shuningdek, qo'shimcha tarzda 265 milliard so'm miqdorida moliyaviy yordam ko'rsatildi. Ushbu moliyaviy resurslar aholining kichik biznes faoliyatini boshlashi yoki kengaytirishiga imkon yaratib, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirdi. Hududiy darajada amalga oshirilgan tashabbuslar ham muhim ahamiyat kasb etdi. Mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilari tashabbusi bilan 410 mingga yaqin mikroloyihalar amalga oshirildi. Ushbu loyihalar kichik hajmda bo'lishiga qaramasdan, aholining bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda sezilarli natijalar berdi. Xususan, mazkur loyihalar orqali 840 ming nafar aholining daromad darajasi yaxshilangan. Umumiy natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan kompleks siyosat

kambag'allikni kamaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bandlikni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish orqali ijobiy natijalarga erishilgan. Shu bilan birga, olingan natijalar inson kapitaliga qilingan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy samarani ta'minlashini ko'rsatadi. Ta'lim darajasini oshirish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va iqtisodiy faollikni kuchaytirish aholi daromadlarining o'sishiga olib keladi hamda kambag'allik darajasining pasayishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yilda amalga oshirilgan chora-tadbirlar inson kapitalini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish mumkinligini amaliy jihatdan tasdiqladi. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish hamda hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari inson kapitalini rivojlantirish orqali kambag'allikni kamaytirish o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlar ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni anglatadiki, mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytirish, aholini daromadli faoliyatga jalb etish hamda inson salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kambag'allik darajasini sezilarli darajada pasaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ta'lim, kasb-hunar o'rganish, sog'liqni saqlash va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. 2025-yilda amalga oshirilgan amaliy natijalar ham inson kapitalini rivojlantirish siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi. Aholining katta qismini daromadli mehnat bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda kam ta'minlangan oilalar uchun individual yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqish kambag'allikni qisqartirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Bu esa inson kapitaliga qilingan investitsiyalar o'z samarasini berayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida olingan natijalarga asoslanib quyidagi ilmiy asoslangan xulosalarga kelindi: inson kapitali darajasining oshishi mehnat unumdorligini ko'taradi, bandlik darajasini yaxshilaydi va daromadlar o'sishini ta'minlaydi. O'z navbatida, bu omillar kambag'allik darajasining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, kambag'allikni kamaytirishda faqat iqtisodiy choralar emas, balki ijtimoiy, ta'limiy va institutsional yondashuvlarning uyg'unligi muhim ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish lozim. Xususan, zamonaviy kasblarga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda oliy va kasb-hunar ta'limi o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur. Ikkinchidan, aholining raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish orqali aholi yangi ish o'rinlariga tez moslashadi va qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois, raqamli ta'lim dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, mehnat bozorida bandlikni oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirish zarur. Yangi ish o'rinlarini yaratish, xususan, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali aholining iqtisodiy faolligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay moliyaviy sharoitlarni yaratish muhimdir. To'rtinchidan, kambag'al oilalar bilan manzilli ishlash tizimini yanada takomillashtirish lozim. Har bir oilaning ehtiyojlari va imkoniyatlarini chuqur o'rganish asosida individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish samaradorlikni oshiradi. Beshinchidan, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Sog'lom inson yuqori mehnat unumdorligiga ega bo'lib, uzoq muddat davomida barqaror daromad topa oladi. Shu sababli, profilaktika va sifatli tibbiy xizmatlarni kengaytirish inson kapitalini mustahkamlashda muhim omildir. Oltinchidan, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Buning uchun infratuzilmani

rivojlantirish, mikroloyihalarni kengaytirish va mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali hududiy bandlikni oshirish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari inson kapitalini rivojlantirish kambag'allikni kamaytirishning eng samarali va barqaror yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, ularni ilmiy asosda takomillashtirish hamda xalqaro tajribani hisobga olish kelgusida yanada yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Becker G. S. (1964), Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, USA, Columbia University Press.

ILO (International Labour Organization) (2022), World Employment and Social Outlook, Geneva, ILO Publications.

Ismoilov S. S. (2023), "Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali", Moliya va bank ishi, 2023, №2, 21–28-betlar.

Karimov B. B. (2022), "Mehnat bozori va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik", Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, 2022, №4, 33–40-betlar.

Mirziyoyev Sh. M. (2022), Yangi O'zbekiston strategiyasi, Toshkent, O'zbekiston nashriyoti. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2024), O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasi bo'yicha statistik ma'lumotlar, Toshkent, DSQ.

OECD (2021), Education at a Glance 2021: OECD Indicators, Paris, OECD Publishing.

Qosimov A. A. (2021), "Inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati", Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2021, №3, 45–52-betlar.

Schultz T. W. (1961), Investment in Human Capital, USA, The American Economic Review, Vol. 51, No. 1, pp. 1–17.

World Bank (2023), Jobs and Economic Transformation in Central Asia, Washington D.C., World Bank.